

MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH

Iroda Davlatboyeva

QQDU, Menejment ta'lim yo'nalishi talabasi

irodadavlatboyeva25@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada respublikamizda maishiy xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining samarali xo'jalik faoliyatini ta'minlashda ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish va resurslardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali soha raqobatbardoshligini ta'minlash masalalari talqin etilgan. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda xizmat sifati va mijozga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maishiy xizmat, xizmat sifati, raqobatbardoshlik, ehtiyoj, iste'molchi, xizmat xaridorboblighi.

Abstract: This article examines the issues of ensuring the competitiveness of the domestic service sector by improving the quality of services provided and organizing the efficient use of resources to ensure the effective economic activity of domestic service enterprises in our republic. The need to strengthen the quality of service and a customer-oriented approach in ensuring the competitiveness of consumer service enterprises is substantiated.

Keywords: household services, service quality, competitiveness, need, consumer, service purchasing power.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining bugungi bosqichida xizmatlar miqdori va sifati bo'yicha yuqori talablar qo'yilmoqda. Yetakchi xorijiy davlatlar tajribasining joriy etilishi xizmatlarga talabni o'sishini ta'minlamoqda. Mazkur holat iste'mol bozorida talab va taklif nisbatining tarkibiy o'zgarishini namoyon qilmoqda. Insonlarning moddiy farovonligi va turmush darajasining uzluksiz oshib borishi natijasida xizmatlarga talablari bo'lgan iste'molchilarning alohida yangicha ko'rinishdagi kategoriyasi paydo bo'ldi. Iste'molchilar farovonligini ta'minlanishi natijasida turli xil zamonaviy xizmatlarga talab muntazam o'sib bormoqda. Shu jihatdan olib qarasak, ba'zi xizmat ko'rsatish korxonalari o'zlarining faoliyatini ushbu kategoriyadagi aholi guruhlarining ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiradilar[2].

Maishiy xizmat ko'rsatish sohasini tadqiq etishda, uning muayyan jihatlari bilan belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish tendentsiyasiga ega ekanligini aytish zarur. Bunda maishiy xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari, shuningdek ushbu sohada band bo'lganlar aholining turli xil maishiy ehtiyojlarini qondirishga qodirdir. Maishiy xizmatlar sohasi o'zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, avvalombor, aholining turmush farovonligi va sifatini oshirish bilan bog'liq bo'lganligi tufayli, u

inson kapitalining rivojlanishiga qulay sharoitlarni yaratishi va ijtimoiy mehnat taqsimotini yuqori darajaga ko'tarilishini ta'minlashi bilan belgilanadi va inson faoliyatining har xil yo'nalishlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Bugungi kunda maishiy xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining samarali xo'jalik faoliyatini ta'minlashda ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish va resurslardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali soha raqobatbardoshligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasining o'ziga xos pirovard maqsadi maishiy xizmat iste'molchilarining ehtiyojlarini to'liq qondirish hisoblanar ekan, uhbu jarayonda maishiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali soha raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bog'liq masalalar dolzarb hisoblanadi.

“Maishiy xizmat ko'rsatish sohasi alohida o'ziga xos tarmoq hisoblanadi. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning o'ziga xosligi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida aholining asosiy massasini turmush darajasini qo'llab-quvvatlashda uning ijtimoiy ahamiyati yuksalishi bilan shartlanadi” [1].

Hozirgi kunda maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari asosan e'tiborni iste'molchilarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirmoqdalar. Buning asosiy sababi xizmatlar bozorida vujudga kelayotgan raqobat muhiti hisoblanadi. Raqobat o'z navbatida xizmatlar sifatiga qattiq talablar qo'yadi. Lekin, bu yerda shuni ta'kidlash joizki, maishiy xizmat korxonalari o'rtasidagi raqobat muhiti mamlakatimiz bozor kon'yunkturasiga muvofiq ravishda endi shakllanib bormoqda.

Raqobat muhitining yaratilishi O'zbekistondagi maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish, xizmatlarning xaridorbobliligini ta'minlash, aholining turli tabaqadagi qatlamlari uchun mos maishiy xizmatlar turlarini qulay narxlarda shakllantirish va tabaqalashtirish uchun zamin yaratishi kerak.

Aholining shaxsiy ehtiyojlarni qondirishda o'ziga xos iste'mol qiymatiga ega bo'lgan turli xil ko'rinishdagi maishiy xizmatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Maishiy xizmatlar muhim va juda kerakli hayotiy vosita sifatida aholi iste'mol fondining asosiy qismini tashkil etuvchi va ehtiyojlarni qondiruvchi tovarlar qatoriga kiradi. Shuning uchun, maishiy xizmat sohasining raqobatbardoshligini ta'minlashda avvalombor soha faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi “Maishiy xizmat ko'rsatish uyushmasi”ni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki, bugungi kunda sohaning tarqoqligi tufayli bu erda innovatsion texnologiyalarni joriy etish ancha qiyin. Uyushmaning tashkil etilishi esa, innovatsiyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsion loyihalar uchun grantlar, investorlarni jalb qilish yoki davlat ko'magidan foydalanish ishlarini ijobiy hal qilishi mumkin.

Startap uslubidagi kichik jamoalarni shakllantirish ham soha raqobatbardoshligini ta'minlashdagi ahamiyatli strategiyalardan biri bo'lishi mumkin. Soha tarqoq bo'lganligi uchun har bir yangi mahsulot uchun kichik,

moslashuvchan va mustaqil ishchi jamoalar tuzish samarali bo'lishi mumkin. Bunday jamoalar tez fikr almashishi va tajriba sinovlari o'tkazishga imkon beradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni mahsulotga integratsiya qilish strategiyasi orqali mahsulotlarni "aqlli" qilish (Internet of Things - IoT, sun'iy intellekt funksiyalari qo'shish) maishiy xizmat ko'rsatishning raqobatbardoshligini ta'minlashda eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lishi ayni haqiqat hisoblanadi. Masalan, aqlli maishiy texnika, energiya samarador qurilmalar va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, maishiy xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun xizmat sifati va mijozga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish lozim. Bundan tashqari marketing va brendingni kuchaytirish, mahalliy bozorda brend imijini yaratish, reklama strategiyasini kuchaytirish, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lish, mijozlar fikrini tahlil qilib, unga mos strategiyalar ishlab chiqish korxona raqobatbardoshligiga erishishdagi zamonaviy yondashuvlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Свириденко Ю.П. Сфера услуг: проблемы и перспективы развития. М.6 Изд «Кандид», 2001. – с.10.
2. Ураков Ж.Р. Хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятлари самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизми (Самарқанд вилояти мисолида) // дисс. иқт. фан. номзоди. – Т.: СамИСИ. 2011. 15-16 б.